

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Бекмуродов Мансур IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
4. Karimov Bobir YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
6. Zaitov Elyor O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
7. Хидиров Сухроб ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
8. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
9. G'oyibov Elyor O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
10. Ibragimov Murodjon YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHUV OMILINING O'RNI.....	73
11. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
12. Tadjibayeva Venera BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Zaitov Elyor,

O'zbekiston Milliy universiteti
"Sotsiologiya" kafedrasini mudiri
Sotsiologiya fanlari bo'yicha (PhD), dotsent
e-mail: e.zaitov@nuu.uz

O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064315>

АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada o'zini o'zi boshqarish institutlarining transformatsiyasi sotsiologik yondashuv asosida o'rganiladi. Unda jamiyat ijtimoiy tuzilmasida ushbu institutlarning o'rni, funksiyalari hamda ijtimoiy munosabatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, demokratik islohotlar sharoitida ularning rivojlanish tendensiyalari empirik va nazariy jihatdan yoritiladi. Institutsional o'zgarishlar, ijtimoiy omillar va huquqiy asoslar o'rtasidagi bog'liqlik sotsiologik nuqtai nazardan izohlanadi. Tadqiqot davomida mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari aniqlanadi. Olingan natijalar o'zini o'zi boshqarish institutlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy institutlar, institutsional transformatsiya, rivojlanish tendensiyalari, mahalla, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy boshqaruv, institutsional islohotlar, ijtimoiy kapital, mahalliy o'zini o'zi boshqarish

Зайтов Элёр,

Национальный университет Узбекистана
Заведующий кафедрой «Социология»
Доктор философии (PhD) по социологии, доцент
e-mail: e.zaitov@nuu.uz

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ ИНСТИТУТОВ САМОУПРАВЛЕНИЯ И ТЕНДЕНЦИИ ИХ РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье трансформация институтов самоуправления рассматривается на основе социологического подхода. В ней анализируются место, функции и влияние данных институтов на социальные отношения в структуре общества. Также в условиях демократических реформ их тенденции развития освещаются с эмпирической и теоретической точек зрения. С социологической позиции объясняется взаимосвязь между институциональными изменениями, социальными факторами и правовой базой. В ходе исследования выявляются существующие проблемы и возможности их решения. Полученные результаты служат основой для выработки научных выводов и рекомендаций по развитию институтов самоуправления.

Ключевые слова: самоуправление, социальные институты, институциональная трансформация, тенденции развития, махалля, гражданское общество, социальное управление, институциональные реформы, социальный капитал, местное самоуправление

Zaitov Elyor,
National University of Uzbekistan
Head of the department “Sociology”
PhD in Sociological Sciences, Associate Professor
e-mail: e.zaitov@nuu.uz

INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE TRANSFORMATION OF SELF-GOVERNANCE INSTITUTIONS AND THEIR DEVELOPMENT TRENDS

ABSTRACT

This article examines the transformation of self-governance institutions based on a sociological approach. It analyzes the role, functions, and influence of these institutions on social relations within the structure of society. It also explores their development trends in the context of democratic reforms from both empirical and theoretical perspectives. The interrelationship between institutional changes, social factors, and the legal framework is explained from a sociological point of view. The study identifies existing problems and the possibilities which eliminates in society. The results serve as a basis for developing scientific conclusions and recommendations for improving self-governance institutions.

Key words: self-governance, social institutions, institutional transformation, development trends, mahalla, civil society, social governance, institutional reforms, social capital, local self-government.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda o‘zini o‘zi boshqarish institutlari ijtimoiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida jadal transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Globallashuv, raqamlashuv va davlat boshqaruvi tizimining modernizatsiyasi sharoitida mahalliy darajadagi boshqaruv shakllarining samaradorligi va institutsional barqarorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida mahalla instituti va boshqa o‘zini o‘zi boshqarish tuzilmalarining roli yanada kuchayib bormoqda.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda, o‘zini o‘zi boshqarish institutlari fuqarolik jamiyatining muhim elementi bo‘lib, ular aholi manfaatlarini ifoda etish, ijtimoiy muammolarni joylarda hal etish va davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi muloqotni ta‘minlash vazifasini bajaradi. Ushbu institutlarning transformatsiyasi esa institutsional o‘zgarishlar, huquqiy baza takomillashuvi va ijtimoiy munosabatlarning yangilanishi bilan bevosita bog‘liq.

Mazkur tadqiqotda o‘zini o‘zi boshqarish institutlari transformatsiyasining institutsional asoslari hamda ularning rivojlanish tendensiyalari sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va samarali mahalliy boshqaruvni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Sotsiologiyada ijtimoiy guruh (yoki jamoalar) nazariyasi fanning markaziy muammolaridan biri bo‘lib, u empirik tadqiqotlar obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy guruhlar, jamoalar jamiyat va insonni bevosita bog‘lab turuvchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Chunki inson ijtimoiy mavjudot sifatida tug‘ilgandan ma‘lum ijtimoiy guruhlar tarkibida bo‘ladi va hayotiy mavjudlik qonuniyatlari, me‘yorlar va tartiblarni o‘zlashtirib mos tarzda ijtimoiy faollikni namoyon etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot institutsional sotsiologiya va boshqaruv nazariyalariga tayanadi. Asosiy yondashuvlar:

institutsionalizm (douglass north) – institutlarning rivojlanishi va transformatsiyasi;
sotsial kapital nazariyasi (robert putnam) – mahalliy boshqaruv samaradorligi;

tizimli yondashuv – o‘zini o‘zi boshqarishni kompleks ijtimoiy tizim sifatida tahlil qilish; neoinstitutsional yondashuv – formal va noformal qoidalar ta’siri.

Mazkur tadqiqot institutsional sotsiologiya va ijtimoiy boshqaruv nazariyalariga asoslanadi hamda o‘zini o‘zi boshqarish institutlari transformatsiyasini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Avvalo, tadqiqotning nazariy asosini institutsional yondashuv tashkil etadi. Douglass North ta’kidlaganidek, institutlar jamiyatdagi “o‘yin qoidalari” bo‘lib, ular formal (qonunlar, me’yorlar) va noformal (an’analar, qadriyatlar) mexanizmlar orqali ijtimoiy xatti-harakatlarni tartibga soladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zini o‘zi boshqarish institutlarining transformatsiyasi huquqiy baza, ijtimoiy munosabatlar va boshqaruv mexanizmlarining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Shuningdek, ijtimoiy kapital nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Robert Putnam fikricha, fuqarolarning o‘zaro ishonchi, hamkorligi va ijtimoiy faolligi mahalliy boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Ijtimoiy kapital yuqori bo‘lgan jamiyatlarda o‘zini o‘zi boshqarish institutlari barqaror va samarali faoliyat yuritadi.

Strukturaviy-funksional yondashuv ham tadqiqotda muhim o‘rin tutadi. Talcott Parsons nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy institutlar jamiyat barqarorligini ta’minlash, integratsiyani kuchaytirish va ijtimoiy tartibni saqlash vazifasini bajaradi. Shu bois, o‘zini o‘zi boshqarish institutlarining transformatsiyasi jamiyatdagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuv jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Bundan tashqari, neoinstitutsional yondashuv ham qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv formal institutlar (davlat siyosati, qonunchilik) va noformal institutlar (mahalla an’analari, madaniy qadriyatlar) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qilishga imkon beradi. O‘zbekiston sharoitida aynan shu ikki omil uyg‘unligi o‘ziga xos boshqaruv modelini shakllantiradi.

Shunday qilib, tadqiqotning nazariy asoslari institutsional, strukturaviy-funksional va ijtimoiy kapital yondashuvlari sinteziga tayanadi. Bu esa o‘zini o‘zi boshqarish institutlarining transformatsiyasi va rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama yoritish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Sotsiologiyada ijtimoiy guruhlar, jamoalarning qator ta’riflari mavjud bo‘lib, ulardan biriga ko‘ra, “Ijtimoiy jamoa – bu individlarning real mavjud, empirik qayd etiladigan yig‘indisi bo‘lib, u yaxlit bo‘ladi va tarixiy va ijtimoiy xatti-harakat, xulq-atvorning mustaqil subyekt sifatida mavjud bo‘ladi” [1, – 477 c]. Sotsiologik ensiklopedik lug‘atda keltirilishicha: “Ijtimoiy jamoalar – bu individlarning yig‘indisi bo‘lib, u nisbiy yaxlitlikni namoyon etadi va tarixiy-ijtimoiy borliqning nisbatan mustaqil subyekt sifatida u yoki bu birgalikdagi faoliyatni amalga oshiradi” [2, – 250 c].

Jamoalar tabiati, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan shug‘ullangan polshalik sotsiolog Yan Shepanskiyning ta’riflashicha: “Ijtimoiy jamoalar deganda, keng ma’noda, qisqa fursatda bo‘lsa-da, ijtimoiy aloqalar va o‘zaro ijtimoiy munosabat o‘rnatilgan kishilarning barcha turdagi birlashmalari, ya’ni birgalikda hayotning har qanday muqim shakli nazarda tutiladi” [3, – 127 c].

M.Veberning fikriga ko‘ra, “Ijtimoiy munosabat deganda – o‘z mazmuniga ko‘ra, bir-biriga mutanosib va muayyan maqsad doirasidagi xatti-harakatni namoyon etayotgan kishilarning xulqi nazarda tutiladi. Natijada bir individning ikkinchisi bilan munosabatining turlicha shakllari namoyon bo‘ladi” [4, – 454 c].

Ko‘pchilik jamoalardagi muammolardan biri uning a’zolari o‘rtasidagi muloqot tizimi hisoblanadi. J.Mid ijtimoiy jamoalarga “Insonlarning jamoaga birlashib yashash odati” yoki “insonlarning jamoaviylikka intilishidir” [5, – 258 c]., deb izoh beradi. Bizningcha ham, insonlar tomonidan ma’lum shart-sharoitga nisbatan munosabat bildirish shakllaridagi o‘xshashliklar natijasida sotsial birliklar yuzaga keladi.

Jamoalarning shakllanishi haqida E.Mune o‘z fikrini bildirar ekan, “Jamoalar – uning a’zolari bo‘lgandagina mavjud bo‘lishi mumkin” [6, – 40 c]., deb qayd etgan. Darhaqiqat, insonlarni jamoalarga birlashib yashashlari natijasida ijtimoiy ehtiyojlar mutanosibligi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, milliy va boshqa qadriyatlar, ko‘nikma, ijtimoiy faoliyat va xulq-atvor me’yorlarining uzluksizligi, izchilligi ta’minlanadi.

Yuqoridagi muayyan maqsad, qiziqish doirasidagi uyushgan hamda hayot taqozosi doirasida shakllangan ta’riflarini umumlashtirgan holda, biz ijtimoiy jamoa – bu kishilarning ijtimoiy

me'yorlar, qadriyatlar va guruhlari bo'lib, umumiyligi bilan ajralib turadi. Turli shakl va turdagi jamoalar – bu kishilarning birgalikdagi hayotiy faoliyati va umum mavjudligining shaklidir”, deb hisoblaymiz.

S.Frolov “Sotsial jamoalar jamiyatning asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan muhim ijtimoiy qadriyatlar va ularni uyg'unlashtiruvchi o'zaro munosabatlar va ijtimoiy me'yorlarning tashkillangan tizimidir” [7, – 143 c]., deydi. Zero, jamoalar kishilik jamiyatidagi barcha munosabatlar, aloqalar tizimini tartibga solib turish va ularning uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki, ular kishilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirishning tarixiy shakllangan ko'rinishi barobarida jamiyatdagi mavjud barcha munosabat shakllarida o'z ifodasini topadi.

S.Frolovning fikricha, inson ijtimoiy mavjudot sifatida o'zi u yoki bu darajada mansub bo'lgan ijtimoiy guruh yoki jamoalarni inguruhlar yoki autguruhlarga ajratadi. Inguruhda inson o'zi tegishli bo'lgan jamoalarni “meniki, o'zinniki” sifatida baholaydi. Bu kabi jamoalar “mening oilam”, “kasbiy jamoam”, “do'stlarim davrasi” sifatida talqin etiladi. Inguruhda kishi ongli tarzda o'zining boshqalarga o'xshashligi va mansubligini his etadi. Boshqa jamoalarga esa autguruh sifatida qaraladi va ramziy “bizniki emas”, “boshqalar” jumlasini bilan ta'riflanadi [8, – 144 c]. Darhaqiqat, shaxs kishilik jamoalarida o'ziga munosib fikr, dunyoqarash va qadriyatlarni qo'llab-quvvatlaydigan insonlar yoki guruhlarni qidiradi. Autguruh a'zolariga xos yalpi jihatlar bo'lishiga qaramasdan, ularning ayrim qirralari ko'pchilikda “yot” taassurot tug'diradi. Kishilar ongsiz tarzda ushbu xususiyatlarni e'tiborga oladilar va notanish kishilardan “yotsirash” holati yuz beradi.

Emori Bogardus tomonidan ishlab chiqilgan “ijtimoiy masofa shkalasi” shaxsning turli ijtimoiy guruhlarga nisbatan munosabatlarini o'lchashga xizmat qiladi. Ushbu shkala orqali shaxsning ma'lum bir guruh vakillarini turli darajadagi yaqinlikda qabul qilishga tayyorligi baholanadi. Masalan, savolnomada quyidagi kabi savollar bo'lishi mumkin: “Siz ushbu guruh vakili bilan oila qurishga tayyormisiz?”, “Siz ushbu guruh vakili bilan yaqin do'st bo'lishni xohlaysizmi?”, “Siz ushbu guruh vakili bilan qo'shni bo'lishga rozimisiz?”, “Siz ushbu guruh vakili bilan birga ishlashga tayyormisiz?”, “Siz ushbu guruh vakillarining mamlakatingiz fuqarosi bo'lishiga qarshi emasmisiz?”, “Siz ushbu guruh vakili mamlakatingizga sayohatchi sifatida kelishini qabul qilaysizmi?”. Javoblar orqali shaxsning ma'lum bir guruhga nisbatan qanchalik yaqin yoki uzoq munosabatda ekani aniqlanadi. Bu usul ijtimoiy masofani o'lchashda samarali vosita bo'lib, jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda qo'llaniladi. Konsepsiya asosida Bogardus shkalasi tuzilib, turli guruhlarga nisbatan shaxsning ochiq yoki yopiq munosabati o'lchamining savolnoma shaklidagi vositasi ishlab chiqiladi [9, – P.135].

Yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak, har qanday o'zini o'zi boshqaruvchi jamoa – bu muayyan ijtimoiy guruh turi bo'lib, muayyan toifadagi odamlarning yagona maqsad, faoliyatni amalga oshirish yo'lida birlashgan, o'ziga xos, boshqaruv, intizom, mas'uliyat va javobgarlik organlariga ega bo'lgan tashkilotlar. U a'zolarining manfaatlari birligi hamda hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlariga asoslangan ijtimoiy institut shakli sifatida mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, mahallaning ijtimoiy mazmuni odamlarni birlashtirish va bahamjihat harakatlanishni anglatishiga amin bo'lamiz.

Mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatiga to'xtalar ekanmiz, dastavval uning institutlashuv xususiyatiga e'tibor qaratamiz. Institut so'zi lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, “tuzilma”, “o'rnatma” degan ma'nolarni anglatadi. Sotsiologiyada ijtimoiy institutlar ijtimoiy hayotning butun sohalarini faoliyatini yo'naltirib turuvchi ramzlar, e'tiqodlar, qadriyat, me'yor, rollar, mavqelarning nisbatan barqaror va yaxlit majmui, deb ta'riflanadi [10, – B. 148].

XX asrning 50-yillarida AQSh sotsiologlari T.Parsons, K.Devis, N.Smelzer, R.Merton, M.Levi va boshqalar ijtimoiy tizim va institutlashuv to'g'risida nazariy yondashuvlarni asosladilar. Xususan, T.Parsonsning ta'limotidagi ijtimoiy tizim nazariyasini uchta asosiy munosabat tashkil etadi, bular madaniyat, jamiyat va shaxsdir, shuningdek, olim har qanday ijtimoiy institutsionallashuv xususiyatini namoyon etishini ta'kidlagan. Shuning uchun “ijtimoiy tizim” bilan bir vaqtda “madaniyat”, “ijtimoiy o'zaro ta'sir” hamda “institutlashuv” paradigmatlari munosabatini ham integrativ tarzda kengroq o'rganib chiqishni kun tartibiga chiqazdi.

Sotsiologiya “ijtimoiy o‘zaro ta’sir” doirasida jamiyatning murakkab va ko‘p qirrali tomonlarini bir tomondan qadriyatlar va me’yorlar, ijtimoiy institutlar va tashkilotlarni, ikkinchi tomondan esa kishilar hayoti ularning turmush tarzi o‘zgarishlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘lchashga imkoniyat yaratdi. Bu yerda P.Sorokinning “Ijtimoiy hodisalar” to‘g‘risida bildirgan qarashlariga muvofiq keluvchi holatni kuzatish mumkin. “O‘zaro ijtimoiy ta’sir” doirasida kishilarning bir-birlariga ta’sir qilish jarayonlarini ularning faoliyatlaridagi “aktyor”lik xislatlarini namoyish qilishlari orqali kuzatiladi. Ijtimoiy tizimni aniqlashda ko‘pincha individlarning “ijtimoiy o‘zaro ta’sir” qilish tizimlaridagi talqini muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlarni P.Sarokindan farqli ravishda, T.Parsons osttizim sifatida olib qarashni tavsiya etadi. U har bir munosabat ikkinchi bir munosabatga uzluksiz ravishda ta’sir etib turishi, ya’ni o‘zaro ta’sir (interaksiya) institutsionallashuv tendensiyasi orqali amalga oshishini ta’kidlaydi.

Sotsiologiya fanida institutsionallashuv atamasi jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlarning vujudga kelish jarayoni sifatida tushuniladi [11, – C. 91-92]. Sotsiologiyada ijtimoiy institutlar to‘g‘risidagi g‘oyalarga boshqaruv munosabati nuqtayi nazaridan yondashilishi e’tiborga loyiqdir. Aynan shu jihatdan jamiyatda individlar ijtimoiy faoliyatining shakllanishi va faollashuvi nuqtayi nazaridan ahamiyatga egadir.

Bizningcha, ijtimoiy institutlar faqat ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaydi. Ijtimoiy institutlar mazmunida uyg‘unlashtirish omili ham muhim o‘rin tutadi. Ya’ni ijtimoiy institutlar munosabatlarni uyg‘unlashtirish imkoni hamdir.

G.Spenser ijtimoiy institutlar taraqqiyoti va ulardagi o‘zgarishlar haqidagi fikrlarini bildirar ekan, “ijtimoiy institutlar paydo bo‘lishi va rivojlanishi uchun jamiyat va inson tomonidan unga kuchli ehtiyoj tug‘ilishi kerak” [12, – C. 50]., – deb ta’riflaydi. Darhaqiqat, ijtimoiy institutlar jamiyatning barqaror amal qilishi uchun eng zarur ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan muhim hodisa yoxud sotsiologik faktdir. Zero, uyg‘unlashtiruvchi o‘zaro munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlarning barqaror ishlashiga yo‘l beradi. Ayni ana shu jihat orqali ular kishilik jamiyatidagi barcha munosabatlar, aloqalar tizimini tartibga solib turish va ularning uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki, ijtimoiy institutlar kishilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini uyg‘unlashtirish borasida tarixiy shakllangan barcha munosabat shakllari sifatida namoyon bo‘ladi.

Biz ijtimoiylashuvni odatlanish tarzida ta’riflovchi yondashuvlarni ham tahlil etdik. Xususan, ijtimoiy institutlarni ta’riflagan J.Mid uni: “Insonlarning jamoaga birlashib yashash odati” [13, – 258 c], – deb izoh beradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jamoa – uning a’zolari bo‘lgandagina mavjud bo‘lishi mumkin. Chunki, insonlarni jamoalarga birlashib yashashlari natijasida ijtimoiy ehtiyojlar mutanosibligi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, milliy va boshqa qadriyatlar, ko‘nikma, ijtimoiy faoliyat va xulq-atvor me’yorlarining uzluksizligi, izchilligi ta’minlanadi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari ijtimoiy institut sifatida jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiluvchi tizim hisoblanadi. Shu boshdan ham mahalla odamlarning jamoalarga birlashib yashash ehtiyojining yaqqol misolidir. Shuningdek, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari o‘zini o‘zi nazorat qiluvchi ijtimoiy institutlarning xususiyatlarini uyg‘unlashtiradi va jamoatchilik nazorati vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy institutlar ijtimoiy hayotni tashkil etish, odamlar va jarayonlarni boshqarish maqsadli regulatsiya qilishning barqaror shakllarini o‘zida namoyon etadi. Ijtimoiy institutlar odamlarning xaotik tartibotini tizimli tartibotga transformatsiyalashtiradi hamda turmush tarzidagi avloddan avlodga o‘tuvchi an’analar, odatlarni qayta takror hosil qilishini ham ta’minlaydi. Jamiyatning uzluksiz transformatsiyalashuvga iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy va xalqaro sohalarga xos bo‘lgan ijtimoiy institutlari fikrimizning guvohidir.

Uzluksiz transformatsiyalashuv jarayoniga atrofdagi omillar, ijtimoiy muhit ham kuchli ta’sir o‘tkazishi tabiiydir. S.Lipset, D.Landberg ijtimoiy institutning atrof muhit bilan o‘zaro ta’sirini alohida o‘rgangan. Bu ta’sir muayyan me’yorlarning buzilishi sharoitida ham yuz berishi mumkin.

Shakllangan milliy infratuzilma sifatida mahalla ham tashqi va ichki ta’sir doirasida faoliyat yuritadi. Shu boisdan ham mahalla fuqarolarning shaxsiy va jamoaviy manfaatlarini himoyalash hamda uyg‘unlashtirishda ta’sir va aks ta’sir funksiyalarini bajaradi. Ayniqsa, fuqarolarning shaxsiy manfaatlari bilan jamoaviy ehtiyojlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashda mahallaning bir

tomondan koordinatorlik, ikkinchi tomondan vositachilik roli muhim ahamiyatga egadir. O‘zaro ta’sir jarayonlarini tizimli va institutsional idrok etishda individlar intilishlari yagona bir umumiylikka yaxlit holga keltirish va muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun birlamchi omil sifatida individlardagi xulq-atvori va faoliyatlarida mazmunan o‘zaro mos tushadigan qadriyatli va madaniy standartlarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Tarkibiy-funksional jihatlariga ko‘ra, ijtimoiy institutlarga tasniflanadi:

1. Releatsion (odamlarning jinsi, yoshi, kasbi va mashg‘ulotlar turi).
2. Regulyativ (idora etish). Bu institutlar shaxsiy maqsadlarining jamiyatda amal qilib turgan normalariga daxlsiz holda amalga oshirish chegaralarini va bu chegaralardan chiqib kelganda qo‘llaniladigan sanksiyalarni belgilaydi.

3. Integrativ (bu institutlar bir butun tuzimga jamiyat manfaatlarini qondirishga mas‘ul bo‘lgan sotsial rolni ifodalaydi).

4. An’anaviy (bu institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urug‘chilik negizida qat’iy belgilangan norma bilan bog‘liqdir).

5. Madaniy (din, fan, san’at, adabiyot bilan bog‘liq).

Institutsionallashuv jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Ijtimoiy institutlar shakllanishidagi xususiyatlardan biri ijtimoiy tabaqalarga xos jamoaviylikdir.

2. Ijtimoiy institut ijtimoiy aloqalar, o‘zaro hamkorlik, aniq shaxs, ijtimoiy guruh va boshqa jamoalar munosabati asosida shakllanadi. Ijtimoiy institutlar xususiy tavsifga ega, o‘zining xususiy tizimi, tarkibi va sifati xususiyatlari mavjud. Eng avvalo, bu qadriyatlar, me‘yorlar, g‘oyalar, shuningdek, odamlarning va boshqa ijtimoiy madaniy elementlarining faoliyati namunasi-tizimidir. Bu tizim odamlarning to‘g‘ri yurish-turishiga kafolat beradi, ularning intilishlarini bir oqimga soladi, ziddiyatlarni hal etadi.

3. Institutlashuvning eng muhim elementlaridan biri ijtimoiy institutni tashkil qilish shakli sanaladi. Tashqaridan ijtimoiy institut moddiy mablag‘ bilan ta’minlangan va aniq ijtimoiy faoliyatni bajarayotgan shaxslar, muassasalar majmui bo‘lib ko‘rinadi. Har bir ijtimoiy institut o‘z faoliyatining maqsadiga, shu maqsad yo‘liga, aniq ish harakatiga, ijtimoiy dunyoqarash, ijtimoiy maqom va rollari to‘plamiga ega bo‘ladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, mahallani ijtimoiy institut sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin: mahalla instituti – bu aniq maqsadli va aniq manzilli ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni amalga oshiradigan sotsiomadaniy tashkillangan birlashmadir.

Ma’lumki, ijtimoiy institutlar tashkilotda ish yuritayotgan shaxslarning yurish-turishini regulyatsiya qilish, rag‘batlantirish yoki tanbeh yo‘li bilan boshqaradi. Mahalla instituti milliy qadriyatlarni saqlash, madaniy hamda ijtimoiy urf-odat va an’analarni rivojlantirish, odamlarni muayyan faoliyatga jalb qilish, shuningdek, jamiyatdagi g‘oyaviy ijtimoiy-madaniy qadriyat va me‘yorlarini amalga oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mahalla xodimlari hamda faollar tomonidan bajariladigan ishlarni aholi ehtiyojlari qiziqish va intilishlarini qonunlar, milliy qadriyat, urf-odat, va an’analar doirasida ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan.

Mumtoz sotsiolog Emil Dyurkgeymning ijtimoiy institutlarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatiga oid nazariyalari hamda transformatsiya jarayonlar xususidagi fikrlari bu hodisani tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning “ijtimoiy faktlar” haqidagi ta’limotiga ko‘ra, jamiyatning barqarorligi va birligi muayyan institutlar tomonidan shakllantiriladi hamda ular ijtimoiy munosabatlarning normal va tizimli faoliyatini ta’minlaydi [14, – C. 253-254]. E.Dyurkgeymning mazkur ta’limotiga ko‘ra, bunday institutlar jamiyatning “ijtimoiy ko‘ngillilik” va “kollektiv ong” kabi tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq [15, – C. 572].

Shu bois, mahalla institutining transformatsiya jarayonlarida ushbu birlashtiruvchi funksiyalarni qanday saqlab qolish yoki qayta shakllantirish kerakligini tushunish uchun dastavval Sharq mutafakkirlarining nazariy merosi hamda G‘arb olimlarining konseptual qarashlariga tayanish maqsadga muvofiq.

Abu Nasr Farobiyning “Fozil shahar fuqarosi”, Alisher Navoiyning “Yaxshilikka ergashish” nazariyalari tadqiqotimizda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur konsepsiyalar mahalla

institutining jamiyatdagi birlashtiruvchi roli va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashdagi ahamiyatini chuqurroq anglashga zamin yaratadi. Masalan, mahalla o'zining an'anaviy vazifalari, jumladan, nikoh tuzish, muammolarni hal etish yoki ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi faoliyatlari orqali jamoani yaxshilik yo'lida birlashtiruvchi va hamjihatlikni mustahkamlovchi platforma bo'lib xizmat qiladi.

Mahallaning ijtimoiy institut sifatidagi mavqei xususida A.Farobiy, Narshaxiy va A. Navoiy qimmatli fikrlarini bayon etishgan. Ularning fikrlari asosida mahallada odamlarning uyushuvi quyidagi omillar orqali amalga oshadi:

1. O'zbek xalqining 92 urug'dan kelib chiqqanligi va har bir urug'ning bir makonda uyushuviga bo'lgan ehtiyoji. Bu versiya qishloqlarimizning "Qipchoq", "Do'rmon", "Qovchin", "O'rta", "Barlos" singari urug' nomlari bilan atalishi: urug'chilik asosidagi uyushuv "Urug'-qishloq-mahalla" tarzida amal qiladi.

2. Kasb-kor, hunarmandchilik va savdo tijorat ehtiyojlari asosidagi ijtimoiy uyushuv. Bunday uyushuv shakli asosan shaharlarda kasb-hunar negizida amal qilib, muayyan kasb sohiblari muqim yashovchi joylar "qandolatchilar", "degrezlar", "duradgorlar", "temirchilar", "taqachilar" mahallasi deb nomlangan.

3. Ilmiy, diniy, sulolaviy maqomiga ko'ra, institutlashuv amal qilgan bo'lib, bunday joylar eshonlar, xo'jalar, sayyidlar, yasovullar mahallasi deb nomlangan.

XULOSA

O'zini o'zi boshqarish institutlarining transformatsiyasi sotsiologik nuqtai nazardan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy kapital va fuqarolik faolligining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu institutlar jamiyatning o'zini tashkil etish darajasini aks ettirib, ijtimoiy integratsiya va ijtimoiy nazoratni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ularning samarali faoliyati aholi ishtiroki, ishonch darajasi va ijtimoiy hamkorlikka bevosita bog'liq. Zamonaviy sharoitda institutsional o'zgarishlar ijtimoiy ehtiyojlar va qadriyatlar asosida shakllanib bormoqda. Shu bois, o'zini o'zi boshqarish institutlarini rivojlantirishda sotsiologik yondashuvlar, empirik tadqiqotlar va ijtimoiy tahlil natijalariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zini o'zi boshqarish institutlarining transformatsiyasi zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u institutsional islohotlar, ijtimoiy munosabatlar va fuqarolik faolligining o'zgarishi bilan bevosita bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu institutlar samaradorligi faqat huquqiy bazaning takomillashuvi bilan emas, balki aholining ijtimoiy faolligi, ishonch darajasi va jamoaviy ishtirokining oshishi bilan ham belgilanadi.

Shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimida an'anaviy qadriyatlar (mahalla instituti) va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining uyg'unlashuvi barqaror institutsional modelni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu jarayon fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va davlat bilan jamiyat o'rtasida samarali muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zini o'zi boshqarish institutlarini yanada rivojlantirish uchun institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolar ishtirokini kengaytirish va ijtimoiy kapitalni oshirish zarur. Bu esa mamlakatda samarali mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish va barqaror taraqqiyotga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/ References

1. Краткий словарь по социологии. /Сост. Коржева Э.М., Наумова Н.Ф. – Москва: Политиздат, 1999. – 477 с.
2. Социологический энциклопедический словарь. /под. ред. Осипов Г.В. – Москва: ИНФРА М-НОРМА, 1998. – 250 с.
3. Шепанський Я. Элементарные понятия социологии. /Пер. с польск. В.Ф.Чесноковой. 2 издание. – Новосибирск: Наука, 2007. – 127 с.
4. Вебер М. Основные социологические понятия. Избранные произведения. Пер. с нем./Сост., Ю.Н. Давыдова. – Москва: Прогресс, 1990. –С. 454.

5. Ритцер Дж. Современные социологические теории. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 258 с.
6. Мунье Э. Манифест персонализма. – Москва: Республика, 1999. – 40 с.
7. Фролов С. Социология. – Москва: Гардарики, 2000. – 143 с.
8. Фролов С. Социология. Учебник. – Москва: Наука, 2004. – 114 с.
9. Vogardus E. A social distance scale // Sociology and social research. L., 1958. – P. 135.
10. Mualliflar jamoasi. Sotsiologiya. Darslik. Toshkent: “VNESHINVESTROM”, 2023. – В.148.
11. Комаров М.С. Введение в социологию. – Москва: Наука, 1994. – С. 91-92.
12. История социологии в Западной Европе и США / Ответственный редактор Осипов Г.В. – Москва: НОРМА-ИНФРА, 1999. – С. 50.
13. Ритцер Дж. Современные социологические теории. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 258 с.
14. Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. Пер. с фр. – Москва: Союз, 1995. – С. 253-254.
15. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – Москва: Наука, 1991. – С. 572.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000